

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZILAR MAHKAMASINING
QARORI
DAVLAT KORXONALARINI OCHIQ TURDAGI AKTSIONERLIK
JAMIYATLARIGA AYLANTIRISHGA OID TASHKILY CHORA-
TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

(O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 1995 y., 6-son, 21-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 5-son, 26-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 106-modda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat mulki bo'lган korxonalarini aktsiyalashtirishni jadallashtirish va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1995 yil 12 iyundagi PF-1164-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Davlat korxonalarini ochiq turdagи aktsionerlik jamiyatlariga aylantirish Tartibi 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi Adliya vazirligi bilan birgalikda davlat korxonasini qayta tashkil etish natijasida tuzilgan ochiq turdagи aktsionerlik jamiyatining Namunaviy ustavini, shuningdek, xususiyashtirishning Namunaviy rejasini ikki hafta muddatda tasdiqlansin.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha qayta tashkil etilayotgan davlat korxonalarini aktsiyalarini chiqarishning 1995 yil uchun jadvali 2- ilovaga* muvofiq tasdiqlansin. Xo'jalik uyushmalarining (korporatsiyalar, kontsernlar va korxonalar boshqa birlashmalarining) rahbarlari aktsiyalar chiqarishning ob'ektlar bo'yicha ishlab chiqilgan jadvalini bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasiga taqdim etsin.

* 2- ilova berilmaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari xo'jalik uyushmalari va tashkilotlari bilan birgalikda 1, 2- ilovalar talablariga muvofiq davlat korxonalarini aktsionerlik jamiyatlariga aylantirilishini, ularning va aktsiyalar chiqarilishining ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasinlar.

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avustdagи 347-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan—O'R QHT, 2001 y., 15-16-son, 106-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 30 iyundagi 272-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan)

Oldingi tahrirga qarang.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi va «Vaqt» Milliy depozitariysi qisqa muddatlarda Milliy depozitariyning hududiy filiallarini va ro'yxatdan o'tkazish punktlarini ko'paytirish chora-tadbirlarini ko'rsinlar.

(6-bandning birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 21 maydagi 263-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan)

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda qiyamatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan soliq olish Tartibini ikki hafta muddatda tasdiqlansin va manfaatdor tashkilotlarga yetkazsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi respublika aktsionerlik jamiyatlari aktsiyalari bo'yicha xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar

olishgan dividendlarni repatriatsiya qilish tartibi to'g'risida bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsinlar.

9. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy banki o'n kun muddatda, xalqaro moliya institutlari tavsiyanomalarini hisobga olgan holda, investitsiya fondlari to'g'risida **Nizom** loyihasini ishlab chiqsinlar va Vazirlar Mahkamasiga kirtsinlar. Xususiy lashtirilgan korxonalar aktsiyalarining 30 foizgachasini, ularning nominal qiymati bo'yicha, investitsiya fondlariga ajratish nazarda tutilsin, bunda ular bitta investitsiya fondiga 10 foizdan oshmasligi kerak.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosbasari V. A. CHjen zimmasiga yuklansin.

Qaroring qanday bajarilayotganligi 1995 yilning oktyabrida ko'rib chiqilsin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1995 yil 15 iyun
221-son

Oldingi tahririga qarang.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 9 martdagি 119-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan)